

*Allamuratova Xosiyat,*  
*Termiz davlat universiteti o'qituvchisi*  
*E-mail: [allamuratovax@tersu.uz](mailto:allamuratovax@tersu.uz)*

## **O'ZBEK ANTOPONIMIKASIDA KONTAMINATSION NOMLAR**

### **Annotatsiya**

*Maqolada o'zbek antroponimikasi tizimidagi kontaminatsion usulda yasalgan nomlarning xususiyatlari, nomlar tarkibidagi qismlarning mazmuniy munosabati, soddada usulda yasalgan ismlardan ajralib turuvchi o'ziga xos jihatlari, ularning lingvistik xususiyatlari aks etgan.*

**Kalit so'zlar:** *antroponimlar, kontaminatsiya, yasalish usuli, qo'sh nomlar, qo'shma ismlar, komponentlar, ism qoliplari*

## **КОНТАМИНАЦИОННЫЕ ИМЕНА В УЗБЕКСКИХ АНТРОПОНИМАХ**

### **Аннотация**

*В статье рассмотрены особенности образования имён методом контаминации в системе узбекской антропонимики, смысловые отношения частей имён, специфические признаки, отличающие их от имён, образованных простым методом, и отражены языковые особенности.*

**Ключевые слова:** *антропонимы, контаминация, способ образования, двойные имена, составные имена, компоненты, модели имен.*

## **CONTAMINATION NAMES IN UZBEK ANTHROPONYMS**

### **Abstract**

*The article discusses the features of the formation of names by the method of contamination in the system of Uzbek anthroponymy, the semantic relations of parts of names, specific features that distinguish them from names formed by a simple method, and reflects linguistic features.*

**Key words:** *anthroponyms, contamination, method of formation, double names, compound names, components, name models.*

### **Kirish**

Xalqimiz tarixi, turmush tarzining o'ziga xos qomusi hisoblangan antroponim va joy nomlari ajdodlarimiz tafakkurining bebaho yodgorligi, o'zbek madaniyati, ma'naviyati hazinasini asrlar davomida boyitib kelgan muhtasham qadriyatlardan biri sanaladi. Shu bois, antroponimlarni milliy madaniyatimizning ko'lamini belgilovchi vositalardan biri sifatida mukammal tadqiq va targ'ib etishimiz lozim.

O'zbek ismlarining imloviy va izohli lug'atlari tuzilgan. Shunga qaramasdan, o'zbek antroponimlarining paydo bo'lishi, rivoji, ismlarning nominatsion xususiyatlari, ism berishning motivativ asoslari, bunda lingvistik va nolingvistik tamoyillarning o'rni, antroponimiyani lingvokulturologik nuqtai nazardan ilmiy tadqiqi, kontaminatsion (qo'shma) ismlarni, ularning tarkibiy qismlari orasidagi

munosabatlarni tahlil qilish kabi masalalar ayrim kichik tadqiqotlarni e'tiborga olmaganida tadqiq etilmagan.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili**

O'zbek tilshunosligida atoqli otlar tizimini tadqiq qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilgan. Ayniqsa, o'zbek antroponimlarining materiallarini to'plash, ismlarning lug'aviy-ma'noviy xususiyatlarini, lisoniy tuzilishi, etnografik-motivativ ma'nolarini tadqiq qilish, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasining o'ziga xos tomonlarini kuzatish ishiga, ismlarning imloviy, izohli lug'atlarini tuzish sohasiga E.Begmatov [1-5], N.Husanov [6], G'.Sattorov [7], R.Xudoyberganov [8], S.Rahimov [9], I. Xudoynazarov [10], S.Kenjayeveva [11] kabi olimlar munosib hissa qo'shishgan.

### **Tadqiqot metodologiyasi**

Mavzusini yoritishda lingvistik tavsiflash, lug'aviy-ma'noviy, qiyosiy-tarixiy, struktural, tipologik-tasnifiy, sotsiolingvistik va lingvomadaniy tahlil metodlaridan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar**

Antroponimlarning shakllanish usullari o'ziga xos bo'lib, ular ifodalanishiga ko'ra sodda so'zlardan hosil bo'lgan, yaxlitlangan va qo'shma antroponimlar kabi guruhlarga bo'linadi. Ismlarni hosil qilishning sintaktik usuli antroponim yasashning eng mahsuldor turi hisoblanib, E.Begmatovning "O'zbek ismlari ma'nosi" nomli lug'atida izohlangan 14600 ta ismdan 8194 tasini qo'shma (kontaminatsion) ismlar tashkil etishi ham buning yorqin dalilidir [2].

Qo'shma so'z, uning tarkibiy qismlari orasidagi semantik munosabat, qo'shma so'zning leksema va so'z birikmasiga munosabati, ula o'rtasidagi grammatik farqlanishlar, ularning hosil bo'lish usullari haqida o'zbek tilshunosligida ko'plab tadqiqotlar olib borilgan.

Antroponimlarning qo'shloq holda kelishini izohlagan olim E.Begmatov: «Qo'shma atoqli otlarni, jumladan, ismlarni yuzaga keltiradigan asos – bu kontekst (matn)dir. Bunda bolani nomlash jarayoni tushuniladi. Sodda ism ham, qo'shma ism ham qisqa nomlash jarayonida tanlanadi yoki yaratiladi. Bunda nominatorning turli va murakkab motivlarga asoslanishi muhim rol o'ynaydi», deya izohlaydi [3].

Ismlar orasida so'z birikmasiga o'xshash ismlar ham mavjud: *Xudoybergan, Tangriberdi, Kuntuo'mish* kabi. Ammo bu ismlar ham go'dakni nomlash jarayonida birdan o'ylab topilgan ismlardir.

Ism yasalgan qo'shma apellyativlar orasida dastlab so'z birikmasi xarakterida bo'lgan leksemalar ham uchraydi: *Qizilgul, Atirgul, Oqbo'ta, Oqbilak* kabi. Ushbu apellyativlar ismga aylangunga qadar uch jarayonni boshidan kechirgan: 1) qizil gul-so'z birikmasi; 2) qizilgul-qo'shma so'z; 3) Qizilgul-ism. Bu holatda qizilgul qo'shma so'zi hech qanday yasalishsiz, tayyor holda ism vazifasiga o'tgan va ushbu o'tish bolani nomlash jarayonida go'zallik motivi asosida birdan yuz bergan. Bunday nomlar asta-sekin udumga kirgan va atoqli ot sifatida tilda yashab kelgan hamda avvaldan tayyor nom sifatida antroponimlar fondida zahira sifatida saqlanib turgan.

Yuqorida keltirilgan yasalmalar *Melixon, Melimurod, Xolchuchuk, Xolniyoz* ismlaridan farqlanadi. Bu ismlar o'zbek tilida oddiy so'z sifatida yasalmagan, balki

onomastik muhitda hosil bo'lgan o'ziga xos nomlardir. Mana shularni hisobga olib o'zbek tilidagi qo'shma ismlarni ikki guruhga ajratish mumkin: 1) tilda avval qo'shma so'z sifatida tayyor holda mavjud bo'lgan turdosh leksemadan yasalgan ismlar; 2) antroponimlar doirasida yasalgan qo'shma ismlar. Mana shu ikki xil yasalishdan hosil bo'lgan qo'shma ismlar kishi nomi sifatida tilda uzoq davrlar davomida istemolda bo'lgan va shakllangan. Bolaga nom mana shunday ismlar orasidan tayyor imkoniyat sifatida tanlab berilavergan.

Qo'shma antroponim aslida bir butun leksema sifatida qabul qilinsa-da, uni tashkil etgan komponentlar orasidagi semantik munosabatlarda ma'lum farqlar bor. Shunga ko'ra, o'zbekcha qo'shma ismlarni ikkiga bo'lish mumkin:

1. Komponentlari tobe munosabatga asoslangan qo'shma ismlar.

2. Komponentlari teng, semantik aloqasiz birikkan qo'shma ismlar.

Komponentlari tobe munosabatga asoslangan ismlar yasalishi ismni tashkil etgan qismlarning semantik-sintaktik munosabatlariga izohlanib asoslanadi. Tobe komponentli ismlar qismlari bir-birini to'ldirish, izohlash, aniqlash asosida birikkan qo'shma so'zdan yasaladi. Qayd qilingan munosabatlar ismlarning yasalishidagi dastlabki sintaktik tabiatidan kelib chiqadi, chunki ism komponentlari semantik tobelikka bo'ysunadi va ism tobe munosabatga asoslangan qo'shma so'zdan "o'sib chiqqan bo'ladi".

Qo'shma ismning so'z birikmasi yoki qo'shma so'zdan hosil bo'lish ismning qachon paydo bo'lganligi, qo'llanish darajasi, fonetik shakllanish holati kabi xususiyatlari bilan boo'liq. Mana shu omillar natijasida ism komponentlari orasida dastlabki sintaktik aloqa yo'qola borib, sezilmas holga keladi, nom shakliga ko'ra yaxlit leksemaga aylanadi: *Manguberdi, O'rinbosar, Toshturo'un* kabi.

1-jadval

1. Komponentlari aniqlovchi+aniqlovchi tipli qo'shma ismlar	2. Izofa qolipli qo'shma ismlar	3. Ega-kesim qolipli qo'shma ismlar	
a) sifatlovchi+sifatlanmish munosabati: Tozagul, Atirgul, Gulchehra, Sohibjamol.	a) arabch artiklli izofalar: -ul, -ash, -ad, -an, -ud, -in, -id. Karimulla, Sayfiddin, Jamoliddin, Asliddin, Aloviddin, Shamsiddin	a) ega+fe'l kesim qolipida: Azizberdi, Esonkeldi, Haqberdi, Xolberdi	
b) sifatlovchi – Xolqiz, Saribosh, Momoqiz, Mingnazar.	b) fors-tojikcha –i izofali ismlar Baxriniso, Gulixandon, Zebiniso, Xurijamol	b) ega+ot kesim: Xolchuchuk, Jonuzoq, Xolshakar, Umurzoq	
c) qaratqich+qaralmish munosabati: Oynur, Norgul, Xudoynazar, Gadoyniyoz.	<b>5. Hol + kesim qolipli ismlar</b>		
<b>4. To'ldiruvchi kesim qolipidan hosil bo'lgan qo'shma ismlar</b>	Bunday qo'shma ismlarning ikkinchi qismi harakatni anglatadigan formalardan iborat bo'ladi va ismning birinchi qismi ikkinchi qismda anglashilgan tushunchaning biror belgisini aniqlab keladi		
Birinchi qismdagi komponent ko'pincha tushum, ba'zan jo'nalish kelishigida bo'ladi: Izbosdi, Olloshukur,	Qiyoslash munosabati: Toshturdi, Po'lattursin	Istak va maqsad munosabati: Bektursin, Omonturdi,	Sabab va holat munosabati: Allabergan, Xushkeldi

Yo'lbosar, Tovoshar, O'tbosar, Qo'yboqar	(Po'latdek bo'lib tursin)	Esonturdi, Mingyashar	
---	------------------------------	--------------------------	--

***Qismlari tobe munosabatiga asoslangan kontaminatsion ismlar<sup>1</sup>***

Qismlari teng munosabatli qo'sh ismlar tobe munosabatga asoslangan qo'shma so'zdan ham ko'proq juft so'zlarga yaqin turadi: Po'lat-ali, Ro'zi-tosh kabi.

Qo'sh ismlarning yasalihi onomastik leksema (atoqli ot) yasashning o'ziga xos xususiyati bo'lib, bu tip ism komponentlari orasida hech qanday semantik va grammatik aloqa mavjud bo'lmaydi, ikki mustaqil komponent yonma-yon kelib, yaxlit bir nomni yuzaga keltiradi: Jo'ra-qo'zi= Jo'raqo'zi, Xol-bozor= Xolbozor kabi.

Qo'sh ismlar o'zining hosil bo'lish modeliga ko'ra boshqa tip qo'shma ismlardan farq qiladi. Bular quyidagilarda ko'rinadi:

a) qo'sh ism komponentlari ikki mustaqil ismdan iborat bo'ladi, ular orasida semantik boo'liqlik bo'lmaydi: *Yunusali, Matmuso, Umarali*;

b) birinchi komponentda ifodalangan ma'no (belgi) ikkinchi komponentda ifodalangan narsa (hodisaga) tegishli bo'lmaydi: *Oqniyoz, Shakarali, Oqmurod*;

c) ikkinchi komponentdan anglashiladigan ma'no birinchi komponentdagi tushunchaga tegishli bo'lmaydi: *Qurbonsuluv, Sherqobil, Qo'ysuluv*;

d) birinchi komponent shunday tushunchani anglatadiki, uning ikkinchi komponentdagi tushunchaga hech qanday aloqasi bo'lmaydi: *Norpo'lat, Norsoat, Pirqo'zi, Nazirtosh, Norqo'zi*;

e) ismning ikkinchi qismidagi ma'no birinchi qismidagi tushunchaga qarama-qarshi bo'ladi: *Sherqul, Sherqo'zi, Temirqul*;

f) ismning birinchi qismidagi ish-harakat yoki tushuncha ikkinchi qism uchun tegishli bo'lmaydi: *Turdibu, Turdimat, Tursunali*;

g) bolaning dunyoga kelishi bilan boo'liq ismning ikkinchi qismidan anglashiladigan ma'no birinchi qismidan anglashiladigan tushunchaga boo'liq bo'lmaydi: *Tillaberdi, Oqberdi*;

h) qo'shma ismni tashkil etadigan qismlar biologik turlarga mansub boshqa-boshqa mavjudotni eslatadi: *Sherbo'ta, Sherqo'zi, Bo'ribars, Barsbuqa*;

i) ism komponentlari shunday tushunchalarni ifoda etadiki, ular bir-biridan farqli va uzoq bo'ladi: *Tursoat, Turdimuhammad, Tursunali*;

j) ism komponentlarining har biri o'zicha mustaqil bo'lgan formal juftlashgan so'zdan tashkil topgan bo'ladi: *Toshtemir (Tosh va Temir), Toshpo'lat (Tosh va Po'lat)* kabi.

Ismlarning motivatsion xususiyatlariga alohida e'tibor qaratgan S.Kenjayeveva qo'sh ism va qo'shma ismlarning farqli jihatlariga ahamiyat qaratadi [11]:

2-jadval

Qo'shma ism	Qo'sh ism
Keldixush	Tosh+Muhammad
Yaxlit ism, yaxlit	yaxlit bir nom

<sup>1</sup> jadval E.Begmatovning tadqiqot ma'lumotlari asosida tuzildi

Ko‘rinadiki, qo‘sh ism komponentlari yaxlit bir ismni hosil qilayotgani uchun birga keladi. Qo‘shma ism komponentlari esa birgalikda bitta ma‘noni anglatayotgani uchun birikadi. Qo‘shma ism (Xushkeldi)da yakka, bitta motiv otananing bolaning dunyoga kelishiga shukronalik munosabatini anglatsa, qo‘sh ismda ikki mustaqil motiv – bolaning joni toshdek mustahkam bo‘lib yashab ketishi va Muhammad (s.a.v) o‘z panohida asrasin deyilgan ma‘no ifodalangan. Demak, qo‘sh ismlar qo‘sh motivli nomlardir [8].

M.Rahimov, S.Mo‘minovlarning fikricha, nom yuzaga kelishi uchun asos bo‘lgan motiv(sabab, asos)ning vaqt o‘tishi bilan unutilishi ko‘p uchraydi. Ayniqsa, bu hodisa qo‘shma tuzilmali antroponim va toponimlarda ko‘p takrorlanadi: *Muhammadjon* ismining *Mamajon, Matjon, Shohrasul* ismining *Shorasul, Rafiqjon* toponimining *Rafqon* shakliga kelishi demotivatsiyaga sabab bo‘lgan [12].

Umuman, antroponimik nominatsiya jarayonida ikki holat kuzatiladi: 1) yangi, original ism ijod qilish; 2) an‘anaviy nomlar orasidan ism tanlash. Birinchi holat o‘tmishda ko‘p kuzatilgan. Mana shu holat til antroponimiya tizimi, fondining yaratilishiga sabab bo‘lgan va ikkinchi holatga imkon yaratgan. Endilikda yangi ism ijod qilish jarayoni faol emas, kam uchraydigan hodisaga aylangan: *Erknura* (*Erkin va Nuryog‘di*), *Mirshod* (*Mirzohid va Gulshod*), *Beknur* (*Bekzod va Nuriya*), *Nurhayot* (*Nurmamat va Gulhayo*) [13,14].

**Xulosa.** Qo‘shma ismlar tarkibi ikki yoki undan ortiq so‘zning mazmun va ma‘lum mazmun ifodalash uchun birlashib, antroponimlarning katta qismini tashkil qiladi. Ya‘ni mavjud ismlar fondinig 60 foizdan oshio‘i qo‘shma ismlar ekanligi ham kontaminatsion nomlarning sodda ismlarga qaraganda kengroq iste‘molda ekanligidan dalolat. Bolaga baxtu omad, dovyuraklik, jasurlik, rizq-ro‘z va boylik, badavlatlik tilab yasalgan ismlarning asosini qadimiy turkiy ismlar, shuningdek, arab hamda fors tilidan o‘zlashgan leksemalar tashkil qiladi. Ayniqsa, kuch-qudrat, jasurlik ramzi bo‘lmish hayvonlar, qushlar nomiga nisbat berib yasalgan ismlarda aniq ko‘rinadi. Demak, kontaminatsion ismlar tarkibidagi har bir komponent ma‘lum vazifada kelib, sodda ismlar ma‘nosiga qaraganda kengroq ma‘nolarni ifoda etadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Бегматов Э. Антропонимика узбекского языка: Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Ташкент, 1965. – 28 с.
2. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma‘nosi. – Toshkent: O‘zME, 1998. – 604 b.
3. Begmatov E.A. O‘zbek ismlari ma‘nosi: (Izohli lug‘at). – Toshkent: O‘zME, 2007.
4. Begmatov E. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan, 2013.
5. Begmatov E. Ismlarning sirli olami. – Toshkent: O‘zbekiston, 2014. – 176 b.
6. Husanov N.A. XV asr o‘zbek adabiy yodgorliklaridagi antroponimlarning leksik-semantik va uslubiy xususiyatlari. – Toshkent, 2000.
7. Sattorov G‘. O‘zbek ismlarining turkiy qatlami: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1990. – 21 b.
8. Xudoyberganov R. O‘zbek antroponimiyasi tizimining variantdorligi: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 2008. – 24 b.

9. Rahimov S. Xorazm mintaqaviy antroponimiyasi: Filol. fan. nom... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. – 25 b.
10. Xudonazarov I. Antroponimlarning til lug‘at tizimidagi o‘rni va ularning semantik-uslubiy xususiyatlari: Filol. fan. nomz... diss. avtoref. – Toshkent, 1998. –26 b.
11. Kenjayeva S.E. O‘zbek tili antroponimlarining nominatsion-motivatsion asoslari va tavsifi. Filol. fan. bo‘y. fals. dokt. (PhD) ... diss. – Qarshi, 2019.
12. Rahmonov M., Mo‘minov S. Antroponim va toponimlarda demotivatsiya hodisasi. – Xiva, 1991. – № 1. – B. 20.
13. Allamuratova X. Apotropeya – etnolingvistikaning tadqiq obyekti sifatida // O‘zbekiston Milliy universiteti xabarлари, 2021-yil, № 1/2/1, – B.202-206.
14. Allamuratova X. Linguistic features of contominational and apotropeic names in the system of anthroponyms of Uzbekistan //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 2. – C. 141-145.